

PSIXOSOMATIKA TARIXI

Rahimova Mamlakat

**Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti amaliy psixologiya
ta'lim yo'nalishi 3bosqich talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6645234>

Annotasiya: psixosomatik holatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ehtiyojning kelib chiqqanligi, va uni bartaraf etishga bo'lgan talabning yuzaga kelishi.

Kalit so'zlar: Tana , Ijtimoiy holat, ruh(Jon) ning tana bilan aloqasi.

Psixosomatikani chuqurroq o'rganadigan bo'lsak, uning tarixi qadimgi yunonlarga borib taqaladi. Ma'nosi Jon va tananing birligi ya'ni tibbiy psixologik bilimlarni jamlagan holda yuzaga keluvchi manba hisoblanadi. Psixosomatika doirasida insonlarning o'ziga xos xususiyatlari va xulq - atvor uslublari, hissiy to'qnashuvlarning turlari u yoki bu badandagi kasalliklar o'rtasidagi munosabatlar tekshirilib o'rganilmoqda. Muqobil tibbiyotda odamlarning barcha kasalliklari ruhda, odamlarning fikrlarida paydo bo'ladigan psixologik nomuvofiqliklar va buzilishlar tufayli yuzaga keladi degan g'oya mashhur. Psixogen omillar keltirib chiqaradigan somatik kasalliklar " psixosomatik buzilish" Deb ataladi. Biroq insonda somatik kasalliklarning psixikaga ta'siri ham o'rganilmoqda. Psixologik omillarning sog'likga ta'siri g'oyasi juda mshhur. Bu g'oyalar allaqachon Gippokrat va Aflotundan bizgacha yetib kelgan. Aflotun: ko'zni boshdan boshni tanadan alohida ajratib olishga harakat qilmaslik kabi, tanani ham ruhni davolamay turib, da'volab bo'lmasligi haqida aytib o'tgan. O'rta asrda musulmon shifokori, Abu Zayd al- Balxiy kasalliklarning rivojlanishida biologik v psixologik omillarning o'zaro ta'siri nazariyasini yaratadi. Psixosomatika atamasi ilk bor 1818-yil nemis shifokori Iogann Kristian Geynrot tomonidan kiritilgan. 1822-yilda nemis psixiatri Karl Jakov psixosomatikaga qarama- qarshi " somatapsixika" tushunchasini kiritadi. Biroq faqat bir asr o'tgach ushbu atama tibbiyot amaliyotida paixoanalitik psixologlar tomonidan qabul qilindi. Xususan, Zigmund Freud Jozef Breuer bilan birgalikda repressiya qilingan hissiyotlar va travmalar " konversiya" Deb nomlangan himoya mexanizmi orqali o'zini somatik simptomlar ko'rinishida namoyon qilishi mumkin . Freyd buning uchun " somatik tayyorlik" Deb nomlangan narsa kerakligini ta'kidlaydi. Bu kasallik o'zini namoyon qiladiagn "organni" tanlash uchun muhim bo'lgan jismoniy omil. Psixosomatik kasallikning falsafiy jihat shuki, aql va tana o'rtasidagi munosabat bir - biriga mos tushmay qolishi. Bu fiziologik jihatdan mukammallik va muvofilikni tashkil qilib beradi. Insondagi barcha o'zgarishlar uning kun sayin shakllanishiga ta'sirini o'tkazadi. Ruhiy jihatdan ojiz, kuchsiz, bo'lgan odam o'zini da'volashga intilishni ham topa olmaydi. Yunon faylasuflari tomonidan tasdiqlangan jumlarlar

ya'ni stressda yuradigan odam yoki haddan ziyod ozib ketishi yoki haddan ziyod semirib ketishi mumkin. Chunki, siqilish ichki organlarning torayishiga olib keladi . Tarixan rivojlanib kelayotgan bu yo'nalishini yanada oldinlatish yosh kelajakning qo'lida ekanligini unutmang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1." Psixosomatika menyusi".
2. Zarifboy Ibodullayev " Tibbiyot psixologiyasi"
3. "Tana va ruh" 2008.
- 4.Somatik kasalliklar 2007.